

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

URAKOVA FERUZA ERKINOVNA

**MARGANES VA GERMANIY KIRISHMA ATOMLARI BILAN
LEGIRLANGAN KREMNIYNING MAGNIT XUSUSIYATLARI**

01.04.10 – Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Fizika – matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико – математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical – mathematical sciences**

Urakova Feruza Erkinovna

Marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning
magnit xususiyatlari 3

Уракова Феруза Эркиновна

Магнитные свойства кремния легированного примесными атомами
марганца и германия..... 25

Urakova Feruza Erkinovna

Magnetic properties in silicon doped with impurity atoms of manganese and
germanium 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI VA MIKROELEKTRONIKA
ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.FM/T.01.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

URAKOVA FERUZA ERKINOVNA

**MARGANES VA GERMANIY KIRISHMA ATOMLARI BILAN
LEGIRLANGAN KREMNIYNING MAGNIT XUSUSIYATLARI**

01.04.10 –Yarimo‘tkazgichlar fizikasi

**FIZIKA–MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Dissertatsiya Islom karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ispm.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyounet.uz) joylashtirilgan.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahonda ko‘plab olimlar va mutaxassislar tomonidan turli xil yarimo‘tkazgich materiallarining elektrofizik, fotoelektrik, optik va magnit xususiyatlari faol tadqiq qilinmoqda. Bu materiallarga kremniy va germaniy kabi elementar yarimo‘tkazgichlar hamda $A^{III}B^V$ va $A^{II}B^{VI}$ birikmali yarimo‘tkazgichlar, shuningdek, ko‘p qatlamli va ko‘p komponentli strukturalar kiradi. Bu xususiyatlarni, ayniqsa materiallarning magnit xususiyatlarini o‘rganishga qiziqish shundan iboratki, yarimo‘tkazgich asbobsozligida elektronlarning spinini boshqarish asosida tezkor va oson boshqariladigan qurilmalarni yaratishda muayyan istiqbolga ega. Magnit tizimlarni yarimo‘tkazgich mikroelektronikaga integratsiya qilish bo‘yicha olib borilayotgan tadqiqotlarning natijalarini amaliyotga tatbiq etish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi. Magnit sezgir yarimo‘tkazgich materiallarda elektronlarning spinini oson boshqarish spin-elektron nanotranzistorlarni va ferromagnit-yarimo‘tkazgich tuzilishidagi gibrid materiallarning yupqa qatlamlarini olishga imkon beradi. Adabiyotlardan ma’lumki, magnit xususiyatlar atomlardagi elektronlarni d-orbita qobig‘idan s- yoki p-orbitalarga o‘tishi bilan bog‘liq. Yarimo‘tkazgich kremniy kristall panjarasiga d-guruh elementlarning kirishma atomlarini legirlash asosida materialning magnit xususiyatlarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jahonda kremniy sirtida va hajmida kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda binar birikmalarini shakllantirish orqali yangi xususiyatli materiallarni olish, boshlang‘ich kremniyning fundamental parametrlarini maqsadli o‘zgartirish va olingan materiallarning fizik xossalarini boshqarishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda molekulyar-nurli epitaksiya va ion implantatsiyasi kabi qimmat zamonaviy texnologik qurilmalar hamda katta energiya sarfini talab qiladigan usullarni almashtiruvchi, kirishma atomlarining nanoo‘lchamli klasterlari va binar birikmalarini kremniy sirtida va hajmida gaz fazadan diffuzion legirlash usulida shakllantirish, ularning yetarlicha yuqori konsentratsiyasini ta’minlash hamda belgilangan element tarkibi va strukturaga ega materiallarni olish imkonini beruvchi diffuzion texnologiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan birga, kirishma atomlarining nanoklasterlari mavjud kremniyda kuzatiladigan yangi fizik hodisalarni chuqur o‘rganish, nanoklasterlar va binar birikmalarning fizik shakllanish sharoitlarini aniqlash hamda ularning elektrofizik parametrlarini boshqarish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda yarimo‘tkazgich materiallarda kuzatilgan hodisalarning fizik mexanizmlarini ochib berish hamda ular asosida yaratilgan asboblardan elektronikaning turli sohalarida amaliyotda qo‘llashda ma’lum darajada ilmiy yutuqlarga erishilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi “Fizika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5032-son qarorida fizika sohasida ilmiy tadqiqot ishlarining natijalarini ishlab chiqish bilan uzluksiz aloqasining ko‘lamini kengaytirish, iqtisod sohalaridagi masalalarni hal

qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlarni hamda innovatsion faoliyatning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish vazifalari qo'yilgan. Bu yo'nalishda yangi funksional imkoniyatlari mavjud, kam energiya talab etadigan yarimo'tkazgich asboblarni yaratish, sarf etiladigan energiyani tejashga hamda tannarxini kamaytirishga imkon beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-20-son¹ hamda 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son² shuningdek, 2023-yil 16-fevraldagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarorlari³ hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda ushbu dissertatsiya ishida olingan ilmiy natijalar muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur ilmiy-tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari bilan mos keladi va III. "Energetika, energiyani tejash, transport, mashinasozlik va asbobsozlik" hamda zamonaviy elektronika, mikroelektronika va fotonika sohalariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Germaniya, Shveytsariya, AQSh, Kanada, Rossiya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarning ilg'or ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida spintronika va magnitoelektronika sohalarida yuqori sezgir magnit datchiklarni yaratish uchun yarimo'tkazgich materiallar va strukturalarni ishlab chiqish hamda olish bo'yicha faol ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

John D. (AQSh), Limen Shen, Xi Zang, Gang Xiang (Xitoy), Jiafei Li (Singapur) va boshqa xorijiy olimlar magnit xossalari yarimo'tkazgichlarni tadqiq etish rivojiga katta hissa qo'shgan bo'lib, ular tomonidan Mn kirishma atomlari bilan legirlangan yupqa qatlamli SiGe namunalari xona haroratida ferromagnit xossalarga ega ekanligi va spintronika uchun datchiklar hamda qurilmalar yaratishda qo'llash mumkinligi ko'rsatib berilgan.

M.Yu. Melnikov, A.A. Shklyayev, A.V. Latyshev (Rossiya) kremniy sirtida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarni hosil bo'lishini gaz fazali epitaksiya usuli yordamida tadqiq qilganlar. Y.N. Parkhomenko va A.I. Belogoroxov (Rossiya) germaniy ionlarini ion implantatsiyasi usuli bilan kremniyda SiGe-nanoklasterlarini olishga erishganlar. Professor S.I. Rembeza (Rossiya) ilmiy ishlarida yarimo'tkazgichlarning kristall panjarasidagi kirishma atomlar va nuqsonlarning fizik xususiyatlarini elektron paramagnit rezonans va yadro magnit rezonans usullari asosida o'rganish natijalarini tizimlashtirgan va umumlashtirgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-yanvardagi "Elektrotexnika sanoatini rivojlantirishning yangi bosqichiga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-20-son qarori

² 2021-yil 19-martdagi "Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5032-son qarori

³ 2023-yil 16-fevraldagi "Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni jadal joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-son qarori

O'zbekiston Respublikasidagi taniqli akademiklaridan R.A. Muminov, M.S. Saidov, M.K. Bahodirxonov, S.Z. Zaynabidinov, A.T. Mamadalimov hamda olimlardan A.S. Saidov, Sh.B. Utamuradova, Q.P. Abdurahmonov, X.S. Daliyev va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarga ega kremniy magnit xususiyatlarini o'rganishda ideal material ekanligi hamda ularni magnitoelektronikada qo'llaniladigan asboblari va datchiklarni yaratishdagi imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida germaniy va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xossalari o'rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borilganiga qaramay, ularning strukturaviy, elektrofizik hamda ferromagnit holatlarining fizik mexanizmlari to'liq o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat texnika universitetining "Raqamli elektronika va mikroelektronika" kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlarining rejasiga kiritilgan bo'lib, OT-F2-55-raqamli "Kirishma atomlar nanoklasterlarini shakllantirish asosida hajmiy tuzilmaga ega kremniy olishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish va ular asosida yangi funksional imkoniyatlarga ega nanomateriallarning yangi sinfini yaratish" mavzusidagi fundamental davlat granti dasturi doirasida, shuningdek, AL-202102215 raqamli "Kremniydagi ferromagnit nanoklasterlardan foydalangan holda aylanma o'sma hujayralarini ushlash uchun mikrofluidik kanallarni integrallashgan tizimi" (2022-2024-yillar) mavzusidagi xalqaro fundamental ilmiy loyiha dasturi doirasida Istanbul texnika universiteti (Turkiya) bilan hamkorlikda amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlariga ega kremniy, shuningdek, $\text{Si}(\text{Mn}, \text{Ge})$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarning magnit xususiyatlarini o'rganish hamda olingan namunalarning asosiy magnit parametrlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

marganes va germaniy kirishma atomlarini kremniyga kiritishning ikki bosqichli past haroratli diffuzion legirlash texnologiyasini takomillashtirish. Kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida marganes kirishma atomlari nanoklasterlarini hamda germaniy kirishma atomlarining $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarini hosil bo'lishining termodinamik shartlari hamda optimal texnologik bosqichlarini aniqlash;

diffuzion legirlash bilan marganes va germaniy kirishma atomlari kiritilgan kremniyning element tarkibini, kirishma atomlarining kremniydagi optimal konsentratsiyasini hamda kremniyda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarni hosil bo'lishining termodinamik shartlarini aniqlash;

marganes va germaniy kirishma atomlari hosil qilgan nanoklasterlar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar mavjud bo'lgan kremniyning elektrofizik, fotoelektrik va optik xususiyatlarini tadqiq etish hamda marganes va germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasini o'zgartirish hisobiga bu xususiyatlarni boshqarish imkoniyatlarini ko'rsatish;

marganes va germaniy kirishma atomlari hosil qilgan nanoklasterli hamda

qo'shimcha marganes kirishma atomlari kiritilgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar mavjud kremniyning magnit xususiyatlarini keng harorat oralig'ida o'rganish. Olingan namunalarning asosiy magnit parametrlarini harorat va qo'yilgan magnit maydon qiymatiga bog'liqligini aniqlash;

kremniyda marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlarini hosil bo'lishining fizik mexanizmlarini tushuntirish hamda olingan materiallarning elektrofizik parametrlarini va ferromagnit xususiyatlarini boshqarish imkoniyatlarini ko'rsatish;

$\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalari va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalari mavjud kremniy namunasiga qo'shimcha marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy asosida spinoelektronikada sezgir magnit datchiklarni yaratish imkoniyatlarini taklif etish.

Tadqiqotning obyekti Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan, p-tur o'tkazuvchanlikka ega KDB-10 markali bor kirishma atomlari konsentratsiyasi $N_B \approx 2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ ga va KDB-0,5 markali bor kirishma atomlarining konsentratsiyasi $N_B \approx 6,2 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ ga teng bo'lgan boshlang'ich monokristall kremniy, shuningdek, Choxralskiy usuli bilan o'stirilgan, bor kirishma atomlari $N_B = 2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ ga va germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi $N_{\text{Ge}} = 6,3 \cdot 10^{19} \text{ sm}^{-3}$ ga teng bo'lgan kremniy, shuningdek, kirishma atomlar sifatida 99,99 % tozalikdagi germaniy (GES-1) va marganes elementlaridan iborat.

Tadqiqotning predmeti marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmali monokristall kremniy namunalari qo'shimcha marganes kirishma atomlari bilan legirlab, keng harorat oralig'ida $T = 1,8 \text{ K}$ va $T = 300 \text{ K}$ aniqlangan manfiy qarshilik (R_h), magnit to'yinganlik (M_s), qoldiq magnitlanish (M_r) va koertsitiv kuch (H_c) dan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida SEM Jeol JSM-IT200LA markali skanerlovchi elektron mikroskop, FSM-1202 markali Furiye-spektrometr, VUP-5 markali vakuum qurilmasi, Xoll effekti va Van-der-Pau usulidagi o'lchashlarda Ecopia HMS-7000 markali qurilma, Shimadzu XRD-6100 rusumidagi rentgen mikroanaliz qurilmasi, FM-Nanoview 1000 rusumidagi magnit-kuch mikroskopi hamda boshqa zamonaviy usullar va o'lchov asboblaridan namunalarning element tarkibini ishonchli aniqlash, elektrofizik, fotoelektrik va optik parametrlarini keng harorat oralig'ida baholash hamda marganes va germaniy kirishma atomlarining kremniy sirtida va sirt oldi qatlamlardagi taqsimotini aniqlashda qo'llanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalari va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalari mavjud kremniyga qo'shimcha marganes kirishma atomlarini kiritib elektrofizik, fotoelektrik, optik va magnit xususiyatlar aniqlangan.

ilk bor marganes va germaniy kirishma atomlarini kremniyga diffuziya usuli bilan kiritish imkonini beruvchi past haroratli ikki bosqichli texnologiya ishlab chiqilgan bo'lib, kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalari mavjud turli solishtirma qarshilik va o'tkazuvchanlik turiga ega kremniy olingan;

ilk bor marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarida ferromagnit xususiyatlar nafaqat past haroratlarda ($T_{Kr} = 30$ K), balki nisbatan yuqori haroratlarda ($T_{Kr} = 300$ K) ham kuzatilgan;

ilk bor marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda Si<Mn,Ge> binar birikmalari mavjud monokristall kremniy namunalarining magnit parametrlari, magnit to'yinganlik (M_s), qoldiq magnitlanish (M_r) va koertsitiv kuch (H_c) qiymatlari $T = 1,8$ K va $T = 300$ K haroratlarda aniqlangan;

kremniy sirti va sirt oldi qatlamlarida hosil bo'lgan Ge_xSi_{1-x} binar birikmalardagi kremniy-germaniy atomlari orasidagi bog'lanish energiyasi, germaniy-germaniy va kremniy-kremniy atomlari orasidagi bog'lanish energiyasidan farq qilishi aniqlangan;

Ge_xSi_{1-x} binar birikmalari va $Ge_xSi_{1-x}-Si_2$ geterovarizon strukturalari mavjud kremniyga qo'shimcha ravishda marganes kirishma atomlari kiritilgan namunalar asosida magneto- va spinoelektronikada sezgir magnit datchiklarni yaratish imkoniyatlari ko'rsatib berilgan.

Tadqiqotlarning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yaratilgan past haroratli ikki bosqichli diffuzion legirlash texnologiyasi marganes va germaniy kirishma atomlaridan iborat Si<Mn,Ge> geterovarizon strukturali magnit sezgir materialni olish imkonini bergan;

kremniy namunalarida hosil qilingan nanoklasterlar va geterovarizon strukturalar asosida yuqori sezgir magnit datchiklar va sensorlar, shuningdek, quyosh nurlanishining keng spektrini yutuvchi samaradorligi yuqori quyosh elementlarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi zamonaviy usullar va o'lchov asboblariidan foydalanib, olingan natijalarning ilmiy asoslanganligi, tajriba natijalarining nazariy hisoblar hamda boshqa mualliflarning ishlari bilan mosligi, olingan ma'lumotlarni fundamental yarimo'tkazgichlar fizikasi nuqtai nazaridan izohlanishi bilan ta'minlandi.

Tadqiqot natijalarini ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlarini o'rganishda xona haroratida ($T = 300$ K) Si<Mn,Ge> geterovarizon strukturali ferromagnit kremniy olindi, marganes kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda Si<Mn,Ge> geterovarizon strukturalari mavjud kremniy namunalarining magnit parametrlari, magnit to'yinganlik (M_s), qoldiq magnitlanish (M_r) va koertsitiv kuch (H_c) aniqlandi.

Amaliy jihatdan marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlarini hamda Si<Mn,Ge> birikmalarini kremniyning sirtida eroziyasiz olish imkonini beruvchi, ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya yaratildi. Bu marganes kirishma atomlarining magnit domenlarini maksimal konsentratsiyasi mavjud materialni olishga imkon berdi. Olingan tajriba natijalari asosida namunalarni spinoelektronikada va kuchli elektron qurilmalarda kalit sifatida qo'llash hamda magnit sezgir datchiklar va magnit xotira elementlarini yaratish imkoniyatlari ko'rsatib berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. Germaniy va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xususiyatlari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Marganes va germaniy kirishma atomlarining diffuziya haroratini bosqichma-bosqich oshirishga asoslangan texnologiya asosida olingan natijalar "FOTON" AJning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etilgan ("FOTON" AJ ning 2024-yil 4-dekabrda № 214-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan diffuzion texnologiyani qo'llash kremniyga kirishma atomlarini kiritish jarayonini takomillashtirish hamda zamonaviy diod va tranzistorlar ishlab chiqarishda optimal p-n o'tishlarning hosil bo'lish imkoniyatini bergan.

Marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalardagi magnit momentning o'zgarishini tavsiflovchi ilmiy natijalar Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida OT-F2-37 raqamli "Gaz aralashmasini tovushdan tez oqimidan foydalanib metallarni eritish, g'ovak metallar olish va ularning fizik xossalarini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental loyihani bajarishda joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 13-oktyabrda 02/01-01-398-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy natijalardan foydalanish olingan materiallarning fizik xususiyatlarini hamda magnit maydon ta'sirida ferromagnit holatga o'tishidagi Kyuri haroratini aniqlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishini bajarishda olingan ilmiy natijalar 9 ta xalqaro va 6 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha 8 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa va fan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shundan 4 ta maqola Scopus bazasida chop etilgan hamda marganes kirishma atomlarini kremniyga diffuziya qilish jarayonini EHM yordamida hisoblash bo'yicha 2 ta dasturiy ta'minotga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 37 ta rasm va 7 ta jadvalni o'z ichiga olgan holda, 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining kirish qismida, tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot fan va texnika rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan hamda ilmiy muammoning yechimini hal qilish holati aniqlangan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyektlari va tadqiqot usullari asoslangan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati, shuningdek, olingan ilmiy natijalarning amaliyotda qo'llash imkoniyatlari ko'rsatilgan. Kirish qismini yakunida dissertatsiya tadqiqotlarining natijalarini xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda ma'ruza va muhokama qilinganligi, chop etilgan maqolalar hamda ishning hajmi va tuzilishi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Binar birikmalarning magnit xususiyatlari, kremniyda marganes va germaniy kirishma atomlarining holati”** nomli birinchi bobi adabiyotlar sharhiga bag‘ishlangan bo‘lib, dissertatsiya ishi yo‘nalishidagi mavjud ilmiy adabiyotlarning tahlili berilgan. Bob oxirida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari aniqlangan.


Dissertatsiya ishining ikkinchi bobi **“Kremniyda marganes va germaniy kirishma atomlarining nanoklasterlarini hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarini, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ va $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ geterovarizon strukturalarni olish texnologiyasi”** deb nomlangan bo‘lib, unda marganes kirishma atomlari nanoklasterlariga, binar birikmalarga $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$, shuningdek, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ va $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ geterovarizon strukturalarga ega kremniy namunalarini olishdagi diffuziya jarayonining termodinamik shartlari hamda texnologik bosqichlar ko‘rsatilgan. Marganes va germaniy kirishma atomlarini kremniyga gaz fazasidan diffuziyalanish mexanizmlari hamda bu kirishma atomlarning kremniy atomlari va kristall panjara struktura nuqsonlari bilan o‘zaro ta’sirlanishining termodinamik shartlari, olingan nanoklasterlar, binar birikmalar va geterovarizon strukturalarning asosiy fizik-kimyoviy parametrlari hamda ularni tadqiq qilishda qo‘llanilgan zamonaviy usullar va uskunalarining ishlashi bayon etilgan. Bob oxirida marganes va germaniy kirishma atomlarini kremniyga kiritishdagi ishlab chiqilgan past haroratli ikki bosqichli diffuzion texnologiyaning ilmiy tahlili berilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Kremniyda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarni hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ va $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ geterovarizon strukturalarning shakllanishi, ularning elektrofizik va fotoelektrik xususiyatlari”** deb nomlanib, olingan namunalarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari keltirilgan. Tajriba natijalari asosida marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining elektrofizik parametrlari boshlang‘ich kremniyning elektrofizik parametrlaridan sezilarli darajada farq qilishi aniqlangan. Kremniy namunalarini gaz fazasidan marganes va germaniy kirishma atomlari bilan diffuzion legirlashda ishlab chiqilgan ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya asosida kremniyning sirti va sirt oldi qatlamida marganes kirishma atomlarining nanoklasterlari, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar olingan.

Marganes kirishma atomlarining nanoklasterlarini hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarini olish uchun KDB-0,5, KDB-10 va KEF-100 markali boshlang‘ich monokristall kremniylar (Choxralskiy usuli bilan o‘stirilgan) dan foydalanilgan. Bu kremniy namunalarida boshlang‘ich bor va fosfor kirishma atomlarining konsentratsiyasi mos ravishda $6,2 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$, $2 \cdot 10^{15} \text{ sm}^{-3}$ va $5 \cdot 10^{13} \text{ sm}^{-3}$ ga teng bo‘lgan. Germaniy kirishma atomlarini kremniyga kiritish past haroratli ikki bosqichli diffuzion texnologiya asosida amalga oshirilgan. Past haroratli diffuzion texnologiyaning asosiy bosqichlari quyidagilardan iborat: tadqiq qilinayotgan boshlang‘ich kremniy namunalari parallelepiped shaklida tayyorlandi va 99,99 % tozalikka ega bo‘lgan, ma’lum massali (massa kvarts ampula hajmiga bog‘liq) kukunsimon marganes va germaniy diffuzantlari kvarts ampulalarga joylashtirilgan hamda vakuum olingan (ampula ichidagi vakuum darajasi $P \approx 10^{-6} \text{ mm rt. st.}$ bo‘lgan). Germaniy kirishma atomlarini diffuziya qilish uchun kvarts ampulalar MG17–60/300 markali diffuzion elektr pechiga xona haroratida ($T = 30 \text{ }^\circ\text{C}$)

joylashtirildi. Elektr pechning harorati asta-sekin 5 grad/min tezlikda oshirildi. Bu jarayonda kremniy namunalariga germaniy kirishma atomlarining diffuziyasini birinchi bosqichi harorati $T = 800 \div 900$ °C gacha qizdirildi va shu haroratda $t = 2$ soat davomida ushlab turildi. So'ngra elektr pech harorati nisbatan tezroq, ya'ni $20 \div 30$ grad/min tezlikda germaniy kirishma atomlarining maksimal eruvchanlik haroratigacha ($T = 1200 \div 1250$ °C) ko'tarildi va bu haroratda namunalar $t = 5$ soat davomida ushlab turildi. Shundan so'ng kvarts ampulalar elektr pechdan chiqarib olindi va sovuq texnik moyga solish orqali 200 grad/sek tezlikda sovitildi. Xuddi shu kabi usul bilan boshlang'ich hamda germaniy kirishma atomlari kiritilgan kremniy namunalariga marganes kirishma atomlari kiritilib marganes kirishma atomlarining nanoklasterlari va $\text{Si} \langle \text{Mn, Ge} \rangle$ strukturalar mavjud namunalar olindi.

FM-Nanoview 1000 rusumli atom kuchlari mikroskopida kremniy sirtida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning hosil bo'lishi o'rganildi (1-rasmga qarang).




1-rasm. a - Kremniy sirtida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmali nanoklasterlarni va
b - $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarni 3 D-ko'rinishi.

Olingan tadqiqotlarning natijalarini tahlili asosida nisbatan past haroratlarda germaniy kirishma atomlarining diffuziya mexanizmi kremniy kristall panjarasida tugunlar bo'ylab sodir bo'lishi va natijada germaniy kirishma atomlari kremniy kristall panjarasining tugunlarida joylashishi, marganes kirishma atomlari esa kremniy kristall panjarasida tugunlararo joylashishi aniqlangan. Kremniy sirti va sirt oldi qatlamida germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi skanerlovchi tunnel mikroskop (STM) yordamida mikrozonddli tahlil qilindi. Bunda kremniyning sirtini kimyoviy yemirish usuli bilan $\sim 0,5$ mkm qadam bilan qatlamma-qatlam olib tashlash orqali ~ 10 mkm chuqurlikkacha o'rganildi. Mikrozonddli tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, diffuziyadan so'ng germaniy kirishma atomlari kremniy sirtida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ tuzilishidagi geterovarizon strukturalardan iborat ko'plab orolchalarni hosil qilishi aniqlandi.

Tajriba natijalarining tahlili asosida germaniy kirishma atomlarining kremniyga optimal konsentratsiyasi kremniy sirtida taxminan $N_{\text{Ge}} \approx 1,5 \cdot 10^{20} \text{ sm}^{-3}$ ga teng bo'lishi aniqlandi. Kremniy namunalariga qo'shimcha haroratli ishlov berilganda, germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi ortdi ($N_{\text{Ge}} > 10^{20} \text{ sm}^{-3}$). Lekin $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmali namunalarning elektrofizik parametrlari keskin yomonlashdi.


Germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar shakllanishida taqiqlangan soha energiyasining qiymati sof monokristall germaniyni taqiqlangan soha $E_g = 0,68 \text{ eV}$ qiymatidan boshlab sof kremniyning

taqiqlangan soha energiyasi $E_{g4} = 1,12$ eV qiymatigacha o'zgarishi aniqlandi (2-rasmga qarang). Germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi va texnologik bosqichlarga bog'liq muayyan qalinlik va zichlikka ega bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarning kremniyda shakllanishi aniqlandi.



2-rasm. $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalariga ega kremniyning sohalar diagrammasi.

Ishlab chiqilgan ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya yordamida kremniyning sirtida va sirt oldi qatlamida qalinligi $d = 10,2\text{-}11,5$ mkm gacha bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmali kremniy namunalari olindi. $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning konsentratsiyasi kremniy sirtidan chuqurlikka kirib borganda element tarkibiga (x -qiymatiga) bog'liq ravishda eksponensial kamaydi. Tajriba natijalarining tahlili asosida kremniy sirtida qalinligi $d \approx 0,3$ mkm gacha bo'lgan yupqa qatlamda germaniy kirishma atomlarining miqdori $\sim 30\%$ gacha yetishi aniqlandi, ya'ni $\text{Ge}_{0,30}\text{Si}_{0,70}$ tarkibli binar birikmalar shakllandi. Bu qatlamdan keyin germaniy atomlarining kremniydagi konsentratsiya eksponensial kamayadi. $d \geq 5$ mkm chuqurlikda kremniydagi binar birikmalarning element tarkibi $\text{Ge}_{0,05}\text{Si}_{0,95}$ nisbatida bo'lishi aniqlandi. Yaratilgan ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya yordamida kremniyning sirti va sirt oldi qatlamida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarni hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarni shakllantirish mumkinligi aniqlandi.



3-rasm. Kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida hosil bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarni konsentratsion taqsimoti.

Germaniy kirishma atomlari asosida kremniyda shakllangan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarning hosil bo'lishi hamda ularning kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida taqsimlanishi 3-rasmda keltirilgan. 3-rasmdan ko'rinib turibdiki, kremniyda hosil bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning konsentratsiyasi taqsimoti eksponensial bog'lanishga ega ekan. Tadqiqot natijalari tahliliga asosan, kremniyning sirti va sirt oldi qatlamida $d \sim 0,3$ mkm chuqurlikkacha $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar maksimal konsentratsiyasida bo'lishi aniqlandi. Kremniy hajmiga yanada chuqurroq kirilganda, binar birikmalarni hosil qilishda ishtirok etuvchi germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi eksponentsial tarzda

kamayadi. Kremniyda hosil bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning konsentratsiya taqsimoti quyidagi to'rt qismdan iborat bo'lishi aniqlandi:

1. Kremniy sirtida hosil bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning konsentratsiyasi kremniy atomlarining konsentratsiyasiga yaqin yoki undan biroz kam bo'ldi;

2. Binar birikmalarning konsentratsiyasi kamaydi va neytral-molekulyar $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar hosil bo'la boshladi, ya'ni geterovarizon strukturalar shakllanishi boshlandi;

3. Hosil bo'lgan $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalarning konsentratsiyasi ortib, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning konsentratsiyasi kamaydi;


4. Asosan boshlang'ich kremniy atomlaridan tashkil topgan to'rtinchi qism. Bu qismda $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar va $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalar bo'lishi mumkin, biroq ularning konsentratsiyasi kremniy atomlarining konsentratsiyasiga nisbatan ancha kam.

4-rasmdan ko'rinib turibdiki, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar bo'lgan kremniy namunalarida, germaniy kirishma atomlari kiritilmagan nazorat kremniy namunalaridan farqli ravishda, fotonlar energiyasini $h\nu = 0,75 \div 0,8$ eV oralig'ida fototokning qiymati sezilarli ortishi kuzatildi. Aniqlangan fotonlar energiyasining oralig'i sof germaniy materialining taqiqlangan soha energiyasi ($E_{g\text{Ge}} = 0,68$ eV) dan katta ekanligi aniqlandi. Tushayotgan fotonlar energiyasi $h\nu = 1,1$ eVga teng bo'lganda fototokning keskin ortishi kuzatilib, bu hodisa kremniydagi sohalararo optik o'tishlarning boshlanishi bilan izohlandi. Tushayotgan fotonlar energiyasining $h\nu = 0,75 \div 0,8$ eV oralig'ida fototokning ortishi asosida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalardagi germaniy va kremniy atomlari orasidagi bog'lanish energiyasi kremniyning taqiqlangan soha energiyasi qiymatidan kichik, ammo germaniyni taqiqlangan soha energiyasidan katta ekanligini ko'rsatdi.


Fotonlar energiyasi $h\nu = 0,75$ eV ga teng bo'lganda kremniydagi $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar yoki $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ geterovarizon strukturalardan elektronlarning o'tkazuvchanlik sohasiga chiqishi boshlandi, bu germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarida fotosezgirlikning $h\nu = 0,75$ eV dan boshlanishiga sabab bo'ldi. Kuzatilgan hodisa kremniyda neytral $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning hosil bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ularning taqiqlangan soha energiyasi $h\nu = 0,75 \div 0,8$ eV oralig'ida bo'lishi aniqlandi.

$\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar hamda $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$ geterovarizon strukturalarga ega kremniyning fotoelektrik xossalari germaniy va marganes kirishma atomlarini gaz fazasidan diffuzion usulda kiritish orqali olingan namunalarda o'rganildi. Tadqiqotlar turli solishtirma qarshiliklar $\rho = 10^2 \div 10^5$ Om·sm oralig'idagi namunalarda harorat $T = 80$ K bo'lganda o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, marganes va germaniy kirishma atomlari kremniyda ion-kovalent $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$ birikmalar hosil qilib, optik faol kislorod atomlarining konsentratsiyasini taxminan ~ 10 % ga kamaytirishga olib keldi. Natijada, elektrofizik parametrlari haroratga barqaror va radiatsiyaga chidamli kremniy namunalarini olish mumkinligi aniqlandi. Germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyga qo'shimcha marganes kirishma atomlarini kiritib, $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$ geterovarizon strukturalar va nanoklasterlarni hosil qilish imkoni ko'rsatib berildi.


5, 6 va 7-rasmlarda germaniy hamda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy, shuningdek, faqat marganes kirishma atomlari bilan legirlangan boshlang'ich kremniy namunalarini fotoo'tkazuvchanligining spektral bog'liqligi keltirilgan. Tadqiqotlar $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$ geterovarizon strukturali p-tur o'tkazuvchanlikka hamda turli solishtirma qarshiliklarga ($\rho = 10^2 \div 10^5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$) ega kremniy namunalarida o'tkazildi. Tadqiqotlar infraqizil IQ-nurli spektral fotoo'tkazuvchanlik sohasida, ya'ni tushayotgan fotonlar energiyasi kremniyning taqiqlangan soha energiyasidan kichik bo'lgan ($h\nu < E_g$) hollarda, elektr maydon qiymati $E = 20 \text{ V/sm}$ va harorat $T = 80 \text{ K}$ bo'lgan sharoitda amalga oshirildi.




4-rasm. Kremniy namunalarining fotoo'tkazuvchanligini spektral bog'liqligi (1 - kremniy nazorat namunasi, 2 - $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalar mavjud kremniy), $T = 80 \text{ K}$, $U = 20 \text{ V}$.



6-rasm. Kremniy namunalarining fotoo'tkazuvchanligining spektral bog'liqligi: 1 - $\text{Si}\langle\text{Mn}\rangle$, $\rho = 4,1 \cdot 10^4 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ va 2 - $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$, $\rho = 5,7 \cdot 10^4 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, $T = 80 \text{ K}$, $U = 20 \text{ V}$.




5-rasm. Kremniy namunalarining fotoo'tkazuvchanligini spektral bog'liqligi, 1- $\text{Si}\langle\text{Mn}\rangle$, $\rho = 2,5 \cdot 10^2 \text{ Om}\cdot\text{sm}$ va 2- $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$, $\rho = 4,3 \cdot 10^2 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, $T = 80 \text{ K}$, $U = 20 \text{ V}$.



7-rasm. Turli solishtirma qarshilikdagi $\text{Si}\langle\text{Mn},\text{Ge}\rangle$ strukturali kremniy namunalarining fotoo'tkazuvchanligining spektral bog'liqligi: 1 - $\rho = 5,7 \cdot 10^2 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, 2 - $\rho = 1,5 \cdot 10^5 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, 3 - $\rho = 7,5 \cdot 10^4 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, 4 - $\rho = 1,5 \cdot 10^4 \text{ Om}\cdot\text{sm}$, $T = 80 \text{ Kda}$, $U = 20 \text{ V}$.



Germaniy va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarini hamda faqat germaniy atomlari bilan o'stirish jarayonida legirlangan kremniy nazorat namunalarida optik faol kislorod atomlarining konsentratsiyasini baholash, $\lambda \sim 620 \text{ nm}$ to'lqin uzunligidan boshlab IQ-nurlar sohasidagi o'tkazuvchanlik spektrlari oralig'ida amalga oshirildi. Spektrlar FSM-1200 markali

infraqizil Furiye spektrometri yordamida, xona haroratida $T = 300$ K da o'Ichandi (8-rasmga qarang).



8-rasm. Si<Mn,Ge> birikmalariga ega kremniy namunalarining fotoo'tkazuvchanligini tushayotgan nurlanish to'lqin uzunligiga bog'liqligi: 1 - Si<Mn,Ge>, 2 - o'stirilish jarayonida germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy nazorat namunasi Si<Ge>, $T = 300$ K.

Elektron skanerlovchi mikroskop yordamida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning sirt va sirt oldi qatlamining element tarkibida kremniyga germaniy kirishma atomlarining diffuziyasini texnologik rejimlari (harorat va vaqt)ni boshqarib $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalari hosil qilish mumkinligi aniqlandi. Turli xil $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarning kombinatsiyalaridan farqli ravishda, kremniy kristall panjarasida, tetraedrik shaklda germaniy atomini uchta kremniy atomlari o'ragan molekulyar–neytral birikmali yacheyka ham hosil bo'lishi mumkin ekan (9-rasmga qarang).




9-rasm. Kremniy va germaniy atomlarini kovalent bog'lanishi hamda elementar $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ tetraedrik yacheykani tuzilishi ($E_{g1}\text{-Si=Si}=1,12$ eV, $E_{g2}\text{-Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{Si}_2$, $E_{g3}\text{-Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{Si}_2$, $E_{g4}\text{-Ge=Ge}=0,68$ eV).

Tajriba natijalari tahlili asosida kremniyning sirt va sirt oldi qatlamida germaniy kirishma atomlari bilan boyitilgan soha shakllanib, kremniy kristall panjarasida $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}\text{-Si}_2$ tuzilishidagi geterovarizon strukturalarning hosil bo'lishiga olib kelar ekan. Hosil bo'lgan birikmalarning o'lchami germaniy kirishma atomlarining konsentratsiyasi va asosiy parametrlariga, shuningdek, diffuzion legirlashning termodinamik shartlariga bog'liq ekan.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Marganes kirishma atomlarining nanoklasterlari hamda Si<Mn,Ge> geterovarizon strukturalar mavjud kremniyning magnit xususiyatlari”** deb nomlanib, $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalarga ega hamda qo'shimcha ravishda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy

namunalarining magnit va elektrofizik parametrlarini o'rganish bo'yicha olingan tajriba natijalari taqdim etilgan.

Germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan va qo'shimcha ravishda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyning magnit xossalarini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, kremniy sirti va sirt oldi qatlamlarida germaniy kirishma atomlarining to'yingan qatlamlari hosil bo'lishidan tashqari, $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ birikmalar ham shakllanishi aniqlandi. Marganes va germaniy kirishma atomlarining diffuziyasidan so'ng kremniy sirti rentgen energodispersiyali mikroanaliz qurilmasi yordamida o'rganilganda, germaniy kirishma atomlarining sirdagi konsentratsiyasi boshlang'ich kremniy atomlarining konsentratsiyasining deyarli yarmigacha yetishi aniqlangan. Yaratilgan ikki bosqichli past haroratli diffuzion texnologiya asosida kremniy hajmida marganes kirishma atomlarining elektrofaol konsentratsiyasi maksimal eruvchanligi $N_{\text{Mn}} = 2 \cdot 10^{16} \text{ sm}^{-3}$ gacha yetdi. Shuningdek, germaniy va marganes kirishma atomlarining mavjudligi boshlang'ich kremniyning fundamental elektrofizik parametrlarini sezilarli darajada o'zgartirishiga olib kelishi aniqlandi.




10-rasm. $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ birikmalarga ega kremniy namunalaridagi magnit domenlarining topologiyasi va magnit relyefining tasviri, $T = 300 \text{ K}$ da.

Marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalariga magnit maydon ta'sir qilinganda nisbatan yuqori haroratlarda ($T_{Kr} = 300 \text{ K}$) ferromagnit hodisasi kuzatildi. Birinchi marta marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarida asosiy fundamental magnit parametrlar aniqlandi, jumladan: M_s - to'yingan magnitlanish, M_r - qoldiq magnitlanish va H_c - koertsitiv kuch. $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalariga ega va qo'shimcha ravishda marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining magnit xossalari FM-Nanoview 1000 markali magnit kuchlari mikroskopi yordamida o'rganilgan va kremniy namunalarida submikron o'lchamdagi "magnit" relyef tasvirlari olingan (10-rasmga qarang).

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni tasdiqladiki, germaniy va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarida ferromagnit xossalar nafaqat past haroratlarda ($T_{Kr} = 30 \text{ K}$), balki nisbatan yuqori haroratlarda ham ($T_{Kr} = 300 \text{ K}$) kuzatildi. $\text{Si}\langle\text{Mn,Ge}\rangle$ binar birikmali kremniy namunalarining magnit xossalarini o'rganish natijalari asosida g'ayrioddiy katta manfiy magnit qarshilik hosil bo'lishi kuzatildi (11-rasmga qarang).


Ma'lumki, skanerlovchi elektron mikroskop (SEM) materiallarning sirtini yuqori sifatli tasvirlarini olish va ularni tahlil qilish imkonini beradi. Bu usul tasvirlarning sifatini yaxshilaydi hamda yetarli darajada o'ta aniqlikdagi tasvirlarni olish uchun yuqori energiyali elektronlar oqimidan foydalanadi. 12-rasmning a va b

larida marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunasi sirtining topologiyasi JSM-IT 200 markali skanerlovchi elektron mikroskop yordamida olingan tasvirlari berildi.



11-rasm. Si<Mn,Ge> birikmali kremniy namunalarida manfiy magnit qarshilikning magnit maydoni kattaligiga bogʻliqligi: a - $T = 80$ K, b - $T = 300$ K, $E = 100$ V/sm.

Kremniyda germaniy va marganes kirishma atomlari ishtirokida Si<Mn,Ge> tuzilishidagi strukturalarning hosil boʻlishini tasdiqlash maqsadida FM-Nanoview 1000 markali atom kuchlari mikroskopi yordamida tadqiqotlar olib borildi.




12-rasm. a va b - Si<Mn,Ge> binar birikmali kremniy namunasi sirtining topologiyasi, v-mikrorentgendispersion tahlil spektri (masshtab 20 mkm), $T = 300$ K da.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, kremniy namunalarining sirtida va sirt oldi qatlamida hosil boʻlgan orolchalar asosan Si<Mn,Ge> ferromagnit birikmalaridan tashkil topgan ekan (13-rasmga qarang). Marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalari qoʻshimcha ravishda IQ-mikroskop yordamida ham oʻrganildi. Tajriba natijalarining tahlili shuni koʻrsatdiki, hosil boʻlgan kremniy-germaniy binar birikmalarning (Si<Mn,Ge>) oʻlchami $1 \div 2$ mkm gacha yetishi hamda marganes kirishma atomlari hosil qilgan birikmalar kremniy sirtida va sirt oldi qatlamida katta miqdorda mavjud ekanligi aniqlandi.


13-rasmdan koʻrinib turibdiki, kremniy namunalarining sirtida Si<Mn,Ge> birikmalaridan tashkil topgan orolchalar hosil boʻlishi oʻrtacha sirt qiyaligining kattalashishiga olib keladi. Bu shuni koʻrsatadiki, marganes kirishma atomlari

hisobiga kremniy namunalarining sirtida Si<Mn,Ge> ferromagnit birikmalar hosil bo‘ladi va bu germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniyga nisbatan, elektr potensialining yuqori cho‘qqilarining paydo bo‘lishiga olib keldi.



13-rasm. Germaniy va marganes kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy sirtining tasvirlari.

Germaniy kirishma atomlarining $\text{Ge}_x\text{Si}_{1-x}$ binar birikmalariga ega kremniy namunalariga marganes kirishma atomlari kiritilganda, $T = 300 \text{ K}$ haroratda ferromagnit holat kuzatildi (14-rasmga qarang).



14-rasm. Marganes va germaniy kirishma atomlari bilan legirlangan kremniy namunalarining magnitlanishini magnit maydonga bog‘liqligi: a, b -Si<Mn,Ge> kremniy namunalari, $\rho = 4 \times 10^4 \text{ Om} \cdot \text{sm}$, p-tur o‘tkazuvchanlik (ko‘k rang) hamda boshlang‘ich kremniy germaniy kirishma atomlari bilan o‘stirish jarayonida legirlangandan so‘ng marganes kirishma atomlari kiritilgan Si<Mn,Ge> strukturali namunalar (qizil rang); v-ferromagnit parametrlari: M_s - to‘yingan magnitlanish, M_r - qoldiq magnitlanish va H_c - koertsitiv kuch, $T = 300 \text{ K}$.

